

Yodgorova Zebo Nurbek qizi,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Yurisprudensiya (Islom huquqi) 2-kurs talabasi

Toshkent, O‘zbekiston, e-mail:zeboyodgorova77@gmail.com

tel:+998935460512

**YEVROPA ITTIFOQI HUQUQI VA MILLIY HUQUQIY TIZIMLARI O‘RTASIDAGI
MUNOSABAT:TARTIBGA SOLUVCHI ASOSIY TAMOYILLAR VA ULARNING
MAVZU-MOHİYATI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining xalqaro va milliy huquqiy tizimlardan farq qiladigan o‘ziga xos huquqi, uning milliy huquqiy tizimlardan ustunligi, shuningdek, Yevropa Ittifoqi huquqining tamoyillari, „yumshoq qonunlari“ ning mohiyati, huquqiy tizimdagi muommolari yoritilib berilgan .

Kalit so‘zlar: Yevropa Ittifoqi huquqi, milliy huquqiy tizimlar, asosiy qonun, yumshoq qonun , normativ qudrat

Abstract:This article covers the specific law of the European Union, which differs from international and national legal systems, its supremacy over national legal systems, as well as the principles of European Union law, the essence of "soft laws," and problems in the legal system.

Key words: European Union Law, national legal systems, basic law, soft law, normative power

Integratsiyaviy jarayon deyilganda bevosita Yevropa Ittifoqi ko‘z oldimizga keladi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi jahonda o‘z o‘rniga ega va xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Shuningdek, uning huquq tizimi noyobligi, mohiyati -mazmuni jihatidan boshqa huquq tizimlardan farq qiladi. Yevropa Ittifoqi huquqi – bu a‘zo davlatlar qonunlariga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatadigan shartnomalar, qonunlar va sud qarorlar to‘plamidir. Bu huquq bozor va raqobatdan tortib, adliya, ichki ishlar, atrof -muhitni muhofaza qilish va inson huquqlariga qadar keng ko‘lamli sohalarini qamrab oladi. U a‘zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Yevropa Ittifoqining huquqiy tizimi xalqaro huquq va federal huquqning ba‘zi jihatlariga tayanadigan noyob huquqiy tizimdir. Bir tomondan, Yevropa Ittifoqi xalqaro tashkilot sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki uning vakolatlari unga suveren davlatlar o‘rtasidagi shartnomaviy bitimlar orqali beriladi. Biroq, Yevropa Ittifoqi federal tendentsiyalarni ham namoyon etadi, chunki Yevropa Ittifoqi qonunlari a‘zo davlatlarning ichki qonunlaridan ustun turadi va suverenitetning birlashuv darajasi mavjud.

Yevropa Ittifoqi huquqi o‘zining murakkab tabiatiga ega. Uning murakkabligi roman-german kontinental huquqi, anglo-sakson tabiatidagi umumiy huquq, ikkinchi tomondan xalqaro va milliy huquqiy me‘yorlar, uchinchi tomondan suverenitet va milliy cheklanishlar tamoyili. Bunday jihatlarining aralashuvi, Yevropa Ittifoqida huquqni qo‘llashda ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Yevropa Ittifoqi integratsiyaviy jarayonning mahsulidir. Integratsiya va hamkorlik o‘rtasidagi farqlarni yaxshi ajratib olinmasa, Yevropa Ittifoqi huquqini anglab olish qiyin kechadi. Yevropa Ittifoqi huquqi o‘z mohiyatiga ko‘ra ham integratsiyaviy huquq, ham hamkorlik huquqi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, xalqaro huquqda Yevropa Ittifoqi huquqiga nisbatan submintaqaviy, milliy huquqiy tizimlarga nisbatan xalqaro huquq xarakterini kasb etadi.

Yevropa Ittifoqi huquqi huquqiy tizim sifatida 2 ta asosiy qismdan iborat:

1) siyosiy, ma'muriy va yuridik tashkillashishga qaratilgan institutsional huquq. Bu huquq me'yorlari Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari va organlarining vakolatlari, maqomi va vazifalarini belgilaydi. Ushbu tuzilmalar tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning maqomi va ustuvor ketma-ketligini (iyerarxiyasi)ni rasmiylashtiradi.

2) moddiy-bazaviy Yevropa Ittifoqi huquqi ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib, Yevropa Ittifoqi huquqi amalga tatbiq etiladigan sohalaridagi individlar va guruhlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni o'zida jamlaydi¹

Yevropa Ittifoqi huquqi, birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma va uning faoliyati to'g'risidagi shartnoma kabi Yevropa Ittifoqini tashkil etgan shartnomalardan kelib chiqadi. Ushbu shartnomalar Yevropa Ittifoqining huquqiy asoslarini belgilaydi va uning maqsadlari, institutlari va vakolatlarini o'zida ifoda etadi. Ko'rinib turibdiki, shartnomalar Yevropa Ittifoqi bir qator shartnomalar asosida tashkil etilgan bo'lib, uning kengayishi va rivojlanishi a'zo davlatlar o'rtasidagi shartnomalar kelishuviga asoslanadi.

Yevropa Ittifoqi huquqini boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ajratib turuvchi jihatlari mavjud. Bularga quyidagilar kirish mumkin:

- 1) Hududiy qamrovi nuqtayi nazardan. Yevropa Ittifoqi huquqi 28ta a'zo davlat hududagina amal qiladi. Bu a'zo davlatlar hudud, entik, diniy jihatdan bir biriga juda yaqindir.
- 2) Huquq me'yorlari yo'naltirilgan subyektlarga ko'ra. Bu huquq boshqa xalqaro tashkilotlar huquqidan farqli ravishda Ittifoqqa a'zo davlatlar, Ittifoq institutlari, ijtimoiy guruhlar va individlar uchun to'g'ridan-to'g'ri huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.
- 3) Huquq me'yorlari amalga tatbiq etiladigan sohalariga qarab. Yevropa Ittifoqi huquqi asosan iqtisodning barcha yo'nalishlarini o'zida qamrab oladi. Integrasiyaviy jarayonning mohiyati ham iqtisod bilan bog'liqdir, ya'ni davlatlarning iqtisodiy jihatdan birlashishidir.
- 4) O'z faoliyatining samaradorligi. Bu tashkilot a'zo davlatlar, institutlar va individlar uchun majburiy bo'lgan huquq yarata olgan tashkilot sanaladi.

Shulardan kelib chiqib Yevropa Ittifoqi huquq tizimi yagona, avtonom va xalqaro huquqdan va a'zo davlatlarning milliy huquqiy tizimlaridan ajralib turadigan deb tan olindi. Yevropa Ittifoqi huquq tizim, har qanday uyushgan huquq tizimi kabi o'zining yozma va yozilmagan manbalariga va o'z ierarxiyasiga egadir². Aks holda, uni huquqiy tizim sifatida tasniflash mumkin emas edi. Yevropa Ittifoqi huquq tizimi manbaviy nuqtayi nazardan "ta'sis etuvchi huquq"(droit originaire) va "ortirma huquq"(droit acquis) Ittifoq institutlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar majmuasidan iborat yozma manbalar tizimi hamda sud amaliyoti va asosiy prinsiplardan iborat noyozma manbalar tizimidan tashkil topgan. Yevropa Ittifoqida shunday qonunlar borki, ular majburiy bo'lmada, a'zo davlatlar o'z mavqeini yo'qotmaslik uchun ularni e'tirof etadi. "Yumshoq qonun" yuridik jihatdan majburiy kuchga emas, lekin shunga qaramay amaliy ta'sir qilishi mumkin. U a'zo davlatlarning turli siyosatlarini va bir-biriga yaqinlashishiga yordam beradi, keyinchalik esa "qattiq qonun" yaratilishiga olib kelishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi huquqi o'zining a'zo davlatlariga bir nechta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu imkoniyatlaridan biri ba'zi jarayonlarning bir xildagi majburiy emasligi bilan xarakterlanadi. Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlar ishtirokida tashkilotlar va uchinchi davlatlar bilan aloqa olib boradi. Shuningdek, bunday hamkorlikda davlatlarning qay darajada ishtirok etishi o'ziga bog'liqdir. Ma'lum davlatlar o'zlari ayrim sohalarida chuqur hamkorlikka kelishishlari mumkin, bunda a'zo davlatlarning barchasi ishtirok etishi shart emas va bu ishtirok etish darajasi ularning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

¹ Yunusov.X.M Yevropa Ittifoqi huquqi darslik Toshkent-2023 B -348

² Alina Kaczorowska European Union Law B-114

Yevropa Ittifoqida davlatlar maqsadlar uyg'unligida birlashar ekan, turli tipdagi milliy huquqiy tizimlar ham bir butunlikda paydo bo'radi. Yevropa Ittifoqi huquqining milliy huquqiy tizimlar bilan o'zaro munosabatlari o'zaro ta'sis shartnomalari va Yevropa Ittifoqi odil sudi tomonidan e'tirof etilgan prinsiplar asosida qaror topadi. Hamjamiyatlar huquqi milliy huquqiy tuzilmalardan ustuvor mavqega egadir. Biroq istisno tariqasida, umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati hamda adliya va ichki ishlar sohalarini yuqoridagi prinsipga amal qilmaydi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, a'zo davlatlar o'z suveren huquqlarini o'zlaridan yuqorida turuvchi tashkilotga topshirgan bo'lsada, bu zinhor ularning davlatchilik tuzulmasiga ta'sir etmaydi. Ular o'zlarining tarixiy yoki zamonaviy yo'sindagi davlat boshqaruvi, milliy qadriyatlari asosida tuzilgan huquq tizimini saqlab qoladilar.

Integratsiyaviy jarayonda turli xil davlat huquq tizimlari birlashar ekan, Yevropa Ittifoqi huquqining milliy huquqiy tizimlar bilan munosabati murakkabdir. Bunda ba'zi muommalarga duch kelish mumkin. Misol tariqasida, vakolatlar taqsimoti muommosi va Yevropa Ittifoqi huquqiga milliy huquqiy tizimlarning ta'sirchanligi bir xil emasligi muommolaridir.

Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi huquqi va milliy huquq o'rtasidagi munosabatlarning birinchi omili Yevropa Ittifoqi va a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatdir.

YeILShning 4-moddasi 3-bandiga muvofiq, "O'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik tamoyili negizida Ittifoq va a'zo davlatlar ta'sis shartnomalaridan kelib chiqadigan vazifalarni ado etishda bir-birlarini o'zaro hurmat qiladi va ko'maklashadi.

A'zo davlatlar Ittifoq institutlarining huquqiy aktlari va mazkur shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarning ijrosini ta'minlash uchun barcha umumiy va maxsus choralarni ko'radi.

A'zo davlatlar Ittifoqning o'z missiyasini bajarishiga ko'maklashadi, mazkur shartnomaning maqsadlari ro'yobga chiqishini xavf-xatar ostiga qo'yadigan barcha ehtimoliy xatti-harakatlardan tiyladi". Ushbu norma orqali a'zo davlatlar va Yevropa Ittifoqining o'zaro vakolatlari taqsimlanishi, o'zaro hamkorlik qilishdagi bir-birining majburiyatlari borligini anglab olish mumkin.

Yevropa Ittifoqi va a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga soluvchi prinsiplari mavjud. Bunga vakolatlar taqsimoti, to'ldiruvchanlik va mutanosiblik, Ittifoq huquqining ustuvorligi, Yevropa Ittifoqi huquqining to'g'ridan-to'g'ri amal qilinishi, huquqiy integratsiyalashuv tamoyillari kiradi.

1. Vakolatlar taqsimoti tamoyili. Ushbu tamoyilda Yevropa Ittifoqi huquqida Ittifoqning mutlaq vakolatlariga kiruvchi sohalar, a'zo davlatlarning mutlaq vakolati doirasiga taalluqli sohalar hamda birgalikdagi vakolatlari taqsimlangan. Yevropa Ittifoqining mutlaq vakolatiga kiruvchi sohalar asosan iqtisod bilan bog'liqdir. A'zo davlatlarning mutlaq vakolatlari jinoyat huquqi, mudofaa kabi sohalarida amal qiladi. Birgalikdagi vakolatlar deyilganda har ikkala tarafning huquq mexanizmlari ishlashidir.

Vakolatlar taqsimotini quyidagi ko'rinishda ko'rish mumkin:

Yevropa Ittifoqining mutlaq vakolatlari:

- 1)bojxona ittifoqi;
- 2) ichki bozorning faoliyati uchun zarur bo'lgan raqobat qoidalarini o'rnatish;
- 3) pul birligi yevro bo'lgan a'zo davlatlar uchun umumiy pul siyosatini olib borish;
- 4) umumiy baliqchilik siyosati doirasida dengiz osti biologik zaxiralarini muhofaza qilish;
- 5) umumiy savdo siyosati.

Yevropa Ittifoqi va a'zo davlatlarning birgalikdagi vakolatiga kiruvchi sohalar:

- 1)ichki bozor;

- 2) jtimoiy himoya siyosatining ayrim sohalari;
 - 3) iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy muvofiqlik;
 - 4) atrof-muhit muhofazasi;
 - 5) iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;
 - 6) transport;
 - 7) transyevropa transport tarmoqlari;
 - 8) energetika;
 - 9) fazoni tadqiq etish;
 - 10) erkinlik, xavfsizlik va adliya (sobiq jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida sud va politsiya hamkorligi);
 - 11) aholi sog'ligi xavfsizligini ta'minlash.
- A'zo davlatlarning mutlaq vakolatiga kiruvchi sohalar:

- 1) axborot-tahlil;
- 2) fuqarolik;
- 3) jinoyat huquqi;
- 4) mudofaa;
- 5) maktabgacha ta'lim;
- 6) saylov huquqi;
- 7) sog'liqni saqlash;
- 8) yerlardan foydalanish;
- 9) mahalliy transport;
- 10) politsiya;
- 11) pochta xizmati;
- 12) soliq siyosati³

Dastlab milliy huquq tizimlaridan chiqqan huquqlar birgalikda huquqlar doirasiga kirib keyinchalik Yevropa Ittifoqining mutlaq vakolatlariga aylanishi mumkin.

2) To'ldiruvchanlik va mutanosiblik tamoyili. Ushbu tamoyillar Yevropa Ittifoqi va a'zo davlatlarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan sohalarda amal qiladi.

To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyillari integratsiyaning "oltin qoidalaridir". Busiz Ittifoq huquqi va milliy huquqiy tizimlar orasidagi muvozanatni, qolaversa, integratsiya istiqbolini tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyilining huquqiy asoslari dastlab YeHShning 5-moddasi, Amsterdam shartnomasiga ilova qilingan "To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyilini amalga tatbiq etish bo'yicha" 7-sonli protokol, Yevropa Ittifoqi uchun yagona Konstitutsiya ta'xis etuvchi shartnoma loyihasining 11-moddasi va Yevropa uchun yagona Konstitutsiya ta'xis etuvchi shartnoma loyihasiga ilova qilingan "To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyilini amalga tatbiq etish bo'yicha" 2-sonli protokolda o'z aksini topgan edi.

Hozirda Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 5- moddasi hamda Lissabon shartnomasiga ilova qilingan "To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyillarini amalga tatbiq etish bo'yicha" 2-sonli protokoli to'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyiliga bag'ishlangan.⁴

³ Yunusov H.M Yevropa Ittifoqi huquqi darslik Toshkent-2023 B-381

⁴ Yunusov H.M Yevropa Ittifoqi huquqi darslik Toshkent -2023 B-385

To'ldiruvchanlik tamoyili Yevropa Ittifoqining mutlaq vakolatlariga kirmaydigan sohalarda, ayrim shartlar asosida amal qiladi. Bunga a'zo davlatlarning muayyan sohadagi maqsadlari yetarli darajada bo'lmasa, Yevropa Ittifoqi davlatlar manfaatiga putur yetkazmagan holda vakolatlariga ega bo'lib, vazifalarni bajaradi .

Atrof-muhitni muhofaza qilish to'ldiruvchilik tamoyili qo'llanilib kelayotgan ilk sohalardan biridir. Keyinchalik unga sog'liqni saqlash, transport, energetika, ta'lim, ishsizlikka qarshi kurash, xalqaro yordam kabi sohalar ham qo'shildi. Chunki mazkur sohalar, qamrovi nuqtayi nazaridan, milliy chegaralar doirasidan chetga chiqib ketadi va, shu tufayli, ularni Ittifoq huquqi doirasida tartibga solish ancha oson va samaralidir.

Mutanosiblik tamoyili. Bu tamoyil Yevropa Ittifoqining harakatini vakolat doirasidan chiqib ketmasligini kafolatlaydi. Uning har bir harakati ta'sis shartnomalaridan chetga chiqmasligi kerak.

Yevropa uchun yagona Konstitutsiya ta'sis etuvchi shartnoma loyihasiga ilova qilingan "To'ldiruvchilik va mutanosiblik tamoyilini amalga tatbiq etish bo'yicha" 2-sonli protokol Konstitutsiya loyihasining 11-moddasi 3-bandida qayd etilgan subsidiarlik tamoyilini monitoring qilishda milliy parlamentlar rolini kuchaytirdi.

3. Ittifoq huquqining ustuvorlik tamoyili. Ittifoq huquqi milliy huquqiy tizimlardan ustuvor mavqega ega. Agarda Ittifoq huquqi va a'zo davlatlarning o'rtasida ziddiyat bo'lsa, milliy sudlar va ma'muriyat tomonidan Ittifoqi huquqidan foydalaniladi. A'zo davlatlar o'z milliy qonunlarini YI qonunchiligiga muvofiqlashtirishi , milliy qonunchilik YI qonunlari bilan mos kelish kerakligi Ittifoq huquqining ustuvorligini anglatadi .

4. Yevropa Ittifoqi huquqining to'g'ridan -to'g'ri amal qilish tamoyili. Yevropa Ittifoqi huquqini to'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etish tamoyilining bir qator shartlari ham mavjud: ular aniq, tushunarli va maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ularni qo'llash uchun boshqa qo'shimcha aktlar (jumladan, umumiy xarakterdagi deklaratsiya, havola yoki uni qo'llash yuzasidan qo'shimcha choralarda ishlab chiqishga qaratilgan qarorlar) va xatti-harakatlar ko'zda tutilgan bo'lmasligi lozim. ⁵

5. Huquqiy integratsiyalashuv tamoyili. Ushbu tamoyil Yevropa Ittifoqi huquqini milliy qonunchilikka kirib borishi, milliy huquq tomonidan o'zlashtirilishini anglatadi. Mazkur tamoyil Yevropa Ittifoqi huquqining yanada keng tarqalishi, majburiy yuridik kuch kasb etilishini ta'minlaydi.

Firma Molkerei-Zentrale sud ishida huquqiy integratsiyalashuv tamoyiliga shunday ta'rif beriladi: "Hamjamiyatlar huquqi me'yorlari hech qanday milliy xarakterdagi choralarsiz milliy huquqiy tartibot ichiga kirib boradi". Milliy huquqiy tizimga singib ketgach, Hamjamiyatlar huquqi xuddi milliy huquq singari amal qila boshlaydi. A'zo davlatlarning vazifasi ushbu huquqning o'zlashtirilishi uchun zarur huquqiy iqlimni yaratish emas, balki uning samarali amal qilishi uchun qulay shart-sharoitlar tug'dirishdan iborat bo'lib qoladi.

6. Huquqiy himoyalanganlik tamoyili. Bu tamoyil Ittifoq huquqining milliy sudlar yoki boshqa mexanizmlar bilan kafolatlanganligini bildiradi. Uning himoyalanganligi milliy va Ittifoq sudlari tomonidan ta'minlanadi.

Yevropa Ittifoqi huquqi o'zining murakkab jihatlari bo'lishi bilan birga noyob, o'ziga xos huquq tizimidir. U o'zining "normativ qudrati" bilan "yumshoq kuch"ni keltirib chiqaradi va boshqa huquq tizimlarga ta'sir qiladi. Ittifoq huquqini o'rganish, unga a'zo davlatlar bilan aloqa qilishda yaqindan

⁵ Yunusov H.M Yevropa Ittifoqi huquqi darslik Toshkent -2023 B-394



yordam beradi. Xususan, O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi so‘nggi yillardagi hamkorlik ,uning huquq tizimini anglashni taqozo etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alina Kaczorowska European Union Law ISBN: 978-1-138-84587-9 (hbk)
2. Yunusov.H.M Yevropa Ittifoqi huquqi Toshkent-2023
3. <https://www.citizensinformation.ie/en/government-in-ireland/european-government/eu-law/charter-of-fundamental-rights/>
4. <https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/Browse/Home/About/OurteamEULaw?navId=4E69387CCA70E7CC91F1698FB6C347CA>
5. https://europeanunion.europa.eu/index_en